

Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 24 149 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ Qashqadaryo viloyati Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash



Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024- yil 1- oktabr holatiga, birlik	2025-yil 1- oktabr holatiga, birlik
Qashqadaryo viloyati:	25 500	24 149
G'uzor	1240	1135
Dehqonobod	986	917
Qamashi	1703	1474
Qarshi	1909	1861
Koson	1717	1625
Kitob	1780	1648
Mirishkor	985	847
Muborak	861	799
Nishon	1377	1197
Kasbi	1232	1090
Ko'kdala	799	1016
Chiroqchi	1290	1256
Shaxrisabz	1250	1239
Yakkabog'	1743	1646
Qarshi sh.	5118	4953
Shahrisabz sh.	1510	1446

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillastirildi

II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-sentabrda 3 698 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1 361 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 831 ta, sanoatda 462 ta, hamda boshqa xizmatlarda 334 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2024- yilning yanvar-sentabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1 293 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 810 ta, sanoatda 628 ta, boshqa xizmatlarda 286 ta hamda tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024- yil yanvar-sentabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-sentabr oylarida, birlik
Qashqadaryo viloyati:	3 741	3 698
G'uzor	183	214
Dehqonobod	133	131
Qamashi	224	174
Qarshi	366	305
Koson	286	239


Kitob	248	176
Mirishkor	152	144
Muborak	134	112
Nishon	195	179
Kasbi	174	150
Ko'kdala	200	382
Chiroqchi	153	186
Shaxrisabz	170	154
Yakkabog'	248	270
Qarshi sh.	665	661
Shahrisabz sh.	210	221

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-sentabrda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 69,9 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0,1 % ga pasayish kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi


2025- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi xizmatlar sohasida – 43,3 %, sanoatda – 17,8 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 30,9 % va qurilishda – 8,0 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 13 547,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 39,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 122,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Ko'kdala va Chiroqchi tumanlarida (100,0%), Qamashi tumani (92,8%), Shahrisabz shahri (90,1 %), Mirishkor tumani (64,2%) hamda Muborak tumani (56,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 9 239,8 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 72,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 111,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Ko'kdala tumani (97,8 %), Yakkabog' tumani (96,9 %) va Qamashi (96,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 11 225,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmdagi ulushi 38,8 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 92,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Qamashi tumani (92,8 %), Ko'kdala tumani (91,0 %), Chiroqchi tumani (86,7 %) va Shahrisabz shahriga (90,0 %) to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 35 004,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 99,2 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 102,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Koson tumani (100,0 %), Dehqonobod va Qamashi tumani (99,9 %), Muborak tumani (98,1 %) va Kasbi (97,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 19 409,6 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 94,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 108,4 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Mirishkor tumani (99,2 %), Nishon tumani (99,0 %), Kasbi (99,0 %) tumani hamda Yakkabog' tumaniga (98,3 %) to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 26 946,2 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmining 73,4 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 111,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Mirishkor tumani (97,2 %), Qamashi tumani (86,8 %), Nishon tumani (86,8 %), Kasbi tumani (85,0 %) va Dehqonobod tumani (82,8 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 141,5 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 34,6 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan

eng ko'p ulushi Dehqonobod, Ko'kdala va Chiroqchi tumanlarida – 100,0 %, Kitob tumanida – 99,5 %, G'uzor tumanida – 99,4 %, Shahrisabz shahrida – 98,8 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 228,7 million AQSH dollarini yoki jami importning 48,5 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Ko'kdala tumanida – 99,5 %, Shahrisabz shahrida – 98,1 %, Qamashi tumani 97,7 %, Yakkabog' tumanida – 94,3 % hamda Kitob tumanida – 90,8 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-sentabrda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 89,4 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,5 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-sentabrda avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 89,5 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,0 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 91,8 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,2 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,0 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi, % da




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-sentabrida 47,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrida esa 53,2 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-sentabrida nisbatan 6,1 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-sentabrida 43,9 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrida 42,8 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-sentabrida 9,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-sentabriga kelib, bu ko'rsatkich 4,0 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-sentabrida 47,8 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrida 67,8 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-sentabrida 42,5 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-sentabrida 29,4 % yoki 13,1 birlikka kamaygan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-sentabrida 9,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-sentabriga kelib, bu ko'rsatkich 2,8 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – 46,2 % ni, xizmatlar sohasida – 24,9 % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 10,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdoda – 45,1 % ni, xizmatlar sohasida – 24,1 % ni va sanoatda – 11,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdoda – 42,9 % ni, xizmatlar sohasida – 26,1 % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 12,3 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoglar-bo-yicha-ulushi.pdf>